

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

12-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 12 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ .....	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG‘ONA VODIYSIDA HASHAR YO‘LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN .....	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o‘g‘li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MEROSINING O‘RGANILISHI .....	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O‘ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA .....	31-36
<i>Asadova Ra‘no Baymanovna</i> OLIY TA‘LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O‘ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN .....	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO‘YI SHAHARLARI TARIXI BO‘YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O‘RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR .....	50-55
<i>Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO‘JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O‘RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR .....	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O‘RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O‘RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA).....	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o‘g‘li</i> SHIMOLI-G‘ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI .....	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O‘ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI .....	80-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Gabbarov Sabit Nietali'evich*

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA  
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI  
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) ..... 85-89

*Xolmurotov Fozil*

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR  
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK ..... 90-103

*Raximov Faxriddin Shavkatovich*

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING  
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI ..... 104-116

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI  
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI ..... 117-121

*Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi*

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA  
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI ..... 122-128

*Jumayeva Shaxlo Suyunovna*

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI ..... 129-133

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich*

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI ..... 134-138

*Danabayev Xurshid Napasovich*

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI ..... 139-142

*Shokirov Tohirjon*

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI  
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) ..... 143-148

*Raxmatov Alisher Obidovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA  
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI ..... 149-152

*Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna*

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:  
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR ..... 153-158

*Axatova Dildora Axtamovna*

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI ..... 159-163

*Toshboboyev Maksud Jalilovich*

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR  
DIALEKTIKASI ..... 164-168

*Abdiyev G'ayrat Ergashevich*

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY  
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI ..... 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR .....	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA .....	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI .....	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI .....	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROL.....	232-237
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245



<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ .....	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА .....	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY" .....	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI .....	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI....	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS .....	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE .....	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI .....	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI .....	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI .....	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI .....	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI .....	334-342
<i>Norqulova Shahlo Abdugofur kizi</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH .....	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI .....	351-355
<i>Omonova Madina Asliddinovna</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ .....	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS .....	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE .....	374-377
<i>Klebleeva Rezeda Radioonovna</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА .....	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH .....	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI .....	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399
<b>12.00.00 - YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI .....	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI .....	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ .....	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

### **13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI**

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI .....	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА .....	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ .....	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH .....	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI .....	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION .....	532-538
<i>Habibullayeva Shoir</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOYILLARI .....	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ .....	554-556

**Received:** 20 November 2025

**Accepted:** 1 December 2025

**Published:** 15 December 2025

*Article / Original Paper*

## **PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE INTEGRATION OF THE INDIVIDUAL INTO MODERN SOCIAL PROCESSES IN NEW UZBEKISTAN**

**Rakhmatov Alisher Obidovich**

Independent candidate,  
chief specialist of the Bukhara regional Council of People's Deputies  
E-mail: [alisherrakhmatov154@gmail.com](mailto:alisherrakhmatov154@gmail.com)

**Abstract.** This article systematically analyzes the formation of spiritual values of young people in modern pedagogical processes, the process of their integration with historical and traditional factors, and their reinterpretation in the context of cultural and social changes taking place in the era of globalization. During the study, the reflection of the national spiritual heritage in the minds of the younger generation, the continuity of traditional values, new socio-pedagogical needs arising as a result of the introduction of modern elements, and their impact on the stability of society are comprehensively covered.

The study focuses on the subjective and objective factors that influence the system of spiritual values formed in the minds of young people - family upbringing, educational institutions, social institutions, global communication media, modern information flows and the strengthening of digital culture. The article examines the role and significance of the process of national identity awareness in the spiritual worldview and social behavior of young people on the basis of philosophical categories, and deeply analyzes the complex socio-cultural situation in which the interaction of traditions and modernity continues.

**Keywords:** New Uzbekistan, individual, social integration, systemic integration, sociocultural processes, social institutions, structural functionalism, social dynamics, socialization, digital space, spiritual culture.

## **YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI**

**Raxmatov Alisher Obidovich**

Mustaqil izlanuvchi,  
xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi bosh mutaxassisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik jarayonlarda yoshlar ma'naviy qadriyatlarining shakllanishi, ularning tarixiy-an'anaviy omillar bilan uyg'unlashuv jarayoni hamda globallashuv davrida ro'y berayotgan madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar kontekstida qayta talqin qilinishi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida milliy ma'naviy merosning yosh avlod ongidagi aksi, an'anaviy qadriyatlarining davomiyligi, zamonaviylik unsurlarining kirib kelishi natijasida yuzaga kelayotgan yangicha ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlar va ularning jamiyat barqarorligiga ta'siri kompleks tarzda yoritiladi.

Tadqiqotda yoshlar ongida shakllanayotgan ma'naviy qadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillar — oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari, ijtimoiy institutlar, global kommunikatsiya vositalari, zamonaviy axborot oqimlari va raqamli madaniyatning kuchayishi ilmiy tahlil markaziga olinadi. Maqolada yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorida milliy o'zlikni anglash jarayonining o'rni va ahamiyatini falsafiy kategoriyalar asosida tadqiq etib, an'analar va zamonaviylik o'zaro munosabati davom etayotgan murakkab ijtimoiy-madaniy holatni chuqur tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, shaxs, ijtimoiy integratsiya, tizimli integratsiya, sotsiokultural jarayonlar, ijtimoiy institutlar, strukturaviy funksionalizm, ijtimoiy dinamika, sotsializatsiya, raqamli makon, ma'naviy madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N25>

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda kechayotgan yangilanishlar shaxsning ijtimoiy voqelikda tutgan o'rnini, dunyoqarashi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar hamda ochiq fuqarolik jamiyati barpo etish tamoyillari shaxsning ijtimoiy jarayonlarga integratsiyalashuvini yangi bosqichga ko'tardi [1; 2].

Integratsiya jarayoni falsafiy nuqtai nazardan insonning ma'naviy kamoloti, erkin fikrlash qobiliyati, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtiroki va umuminsoniy qiymatlarga sadoqati bilan belgilanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida shaxsning ijtimoiylashuvi nafaqat an'anaviy institutlar, oila, ta'lim, jamoa orqali, balki raqamli makon, media madaniyat va global kommunikatsiya vositalarining ta'sirida ham kechmoqda [4; 5].

Shaxsning zamonaviy jarayonlarga moslashuvi uchun huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishi, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar muhitining ta'minlanishi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, fuqarolik faoliyati, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi va ma'naviy immunitetning mustahkamlanishi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy shartlaridandir [1].

Yangi O'zbekistonda shaxsning ijtimoiy integratsiyasi inson manfaatlariga tayangan demokratik qadriyatlar, yangicha ijtimoiy munosabatlar va global sivilizatsiya jarayonlarini milliy an'analar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy integratsiya muammosi sotsiologiya asoschilaridan biri Ogyust Kont tomonidan ham chuqur tahlil qilingan. Kont jamiyatni yaxlit organizm sifatida talqin qilgan va ushbu birlikni ifodalash uchun "konsensus", "uyg'unlik" kabi tushunchalardan foydalangan. Uning fikricha, jamiyat barcha qismlar o'zaro bog'liq va umumiy konsensus bilan birlashgan tizim bo'lib, aynan shu holat ijtimoiy barqarorlikning asosini tashkil etadi.

Kont integratsiya va birlik muammosini shakllanayotgan yangi ijtimoiy fan ijtimoiy statika doiralarida tahlil qilgan. U integratsiyani ijtimoiy mojarolarni bartaraf etish, shaxslar, guruhlar va institutlar o'rtasidagi uyg'unlikni saqlab qolish uchun zarur omil deb bilgan. Kontning fikricha, yangi ijtimoiy fan aynan shu muammolarni ilmiy asosda yechishga xizmat qilishi lozim edi [11].

Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik tafakkurda jamiyatni tahlil qilishda qo'llaniladigan eng asosiy tushunchalardan biridir. Ijtimoiy integratsiya tushunchasiga ma'nodoshlik qiluvchi boshqa ilmiy atamalar ham mavjud. Ijtimoiy birlik jamiyatning mavjudligi uchun asosiy shartdir; birlik bo'lmagan joyda tirik ijtimoiy tizim haqida gapirish qiyin. Shu bilan birga, har qanday jamiyatda parchalanish tendensiyalari, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud bo'lganligi sababli, integratsiyani saqlab qolish doimo dolzarb vazifadir [7; 8; 9; 10]. Parchalanish jarayonlarining ustunlik qilishi esa tarixda ko'plab jamiyatlarning yemirilishiga sabab bo'lgan. Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya ijtimoiy tartib va integratsiya muammosiga doimo alohida e'tibor qaratib keladi. T. Parsons ijtimoiy integratsiyani saqlab qolish uchun mas'ul bo'lgan bir qator asosiy mexanizmlarni ajratib ko'rsatadi.

- Ular jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir uchun yagona ma'naviy-normativ asos yaratadi. Qadriyat va normalar shaxslarga asosan ijtimoiylashuv jarayonida singdiriladi; bunda oila va ta'lim muassasalari yetakchi rol o'ynaydi. Biroq zamonaviy jamiyat sharoitida ommaviy axborot vositalarining tobora kuchayib borayotgan ta'sirini ham inkor etib bo'lmaydi.

- Ular jamiyatdagi turli guruhlar va kasbiy segmentlar o'rtasida barqarorlikni ta'minlaydigan va o'zaro ta'sirni tartibga soladigan normalar va me'yorlar tizimi orqali shaxs xatti-harakatlarini boshqaradi.

- Rollar ijtimoiy institutlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatning turli quyi tizimlaridagi harakatlarni koordinatsiyalashga xizmat qiladi.

- U huquqiy normalardan tortib jamoatchilik fikrigacha bo'lgan vositalar tizimini qamrab oladi. Ijtimoiy nazorat normativ tartibni qo'llab-quvvatlaydi, unga amal qilishni rag'batlantiradi va buzilish holatlarida jazolash mexanizmlarini ishga soladi.

- Parsons sotsializatsiyani shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvi uchun asosiy jarayon deb biladi. Aynan sotsializatsiya orqali jamiyat o'zining qadriyatlari, normalari va institutlarini qayta ishlab, avloddan-avlodga uzatadi.

Parsons ijtimoiy integratsiya ijtimoiy o'zaro ta'sirning barcha darajalarida yuz berishini ta'kidlaydi, biroq har bir darajada turli mexanizmlar ustun bo'ladi. Ijtimoiy integratsiya doimiy ravishda avtomatik sodir bo'ladigan jarayon emas. Ayniqsa murakkab zamonaviy jamiyatlarda u deviant xulq-atvor, qarama-qarshi qadriyatlarning bir vaqtda mavjud bo'lishi va institutsional muvofiqlashtirishning yetarli darajada samarali bo'lmasligi kabi muammolar bilan to'qnashadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy g'oyalari orasida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili alohida o'rin egallaydi. Ushbu g'oya nafaqat ma'naviy-ma'rifiy sohani, balki demokratik jamiyat barpo etish, huquqiy davlatni mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash kabi barcha sohalarni qamrab oladi. Milliy yuksalish strategiyasining amaliy ifodasi sifatida 2017–2022-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" rivojlanish konsepsiyasi, shuningdek "Raqamli iqtisodiyot – 2030", "Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" kabi hujjatlarni ko'rsatish mumkin.

Har qanday strategik islohotning muvaffaqiyati avvalo inson omiliga, ya'ni shaxsning jismoniy, iqtisodiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq [3].

Shaxsning ma'naviy madaniyati esa uning jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy madaniyat jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish bilan birga, o'zi ham jamiyatdagi o'zgarishlardan ilhom oladi va boyiydi.

Bugungi davr sharoitida O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarining muvaffaqiyati erkin fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish zaruriyatini tug'diradi. Shaxsning erkin rivojlanishi, avvalo, uning tashqi ijtimoiy bosimlardan holi bo'lishi, ichki ma'naviy kuch va reflexiv ongga ega bo'lishini talab etadi. Insonning o'zini o'zi o'zgartirishi va o'z ustida ishlashi ijtimoiy jarayonlarga faol qo'shilishning asosiy mezonidir. Bu jarayonning boshlanish nuqtasi esa shubhasiz ma'naviy o'zgarish, ya'ni insonning ichki dunyosi, qadriyatlari va maqsadlaridir.

Ma'naviy madaniyatning ichki va tashqi jihatlari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki dialektik birlikni tashkil etadi. Tashqi madaniyatni o'zlashtirgan shaxs o'zining ichki madaniyati, ma'naviy qiyofasi va intellektual dunyosini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxsning o'zini o'zi belgilashi, o'z hayotini ongli ravishda boshqarishi orqali amalga oshadi. Shaxs madaniyatining tarkibiy unsurlari – til, dunyoqarash, ma'lumot, ong va aql — uning ijtimoiy integratsiyasi uchun asosiy omillardir.

**Xulosa.** Zamonaviy jamiyatda shaxsning ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy taraqqiyotning ajralmas omiliga aylanmoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligi ularning ongida jamiyatga munosabat, fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyatni shakllantiradi. Bugungi globallashuv sharoitida davlatning nufuzi uning iqtisodiy kuchi bilan emas, balki yuksak ma'naviy-intellektual salohiyati bilan belgilanmoqda. Mazkur salohiyatni rivojlantiruvchi kuch — bilimli, vatanparvar, ma'naviy jihatdan yetuk yoshlar qatlamidir.

O'zbekiston sharoitida aholi tarkibida yoshlarning ulushi yuqori bo'lgani holda, ular ijtimoiy taraqqiyotning "katalizatori"ga aylanmoqda. Yoshlar ongining globallashuv, raqamli muhit, ochiq axborot oqimlari sharoitida shakllanib borishi davlat siyosatida ularga alohida e'tibor qarashni taqozo etmoqda. Zero, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, yoshlar tarbiyasi masalasida "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [6] degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz. Shu bilan birga, shaxsning zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga integratsiyalashuvi faqat ma'naviyat yoki siyosiy faollik bilan belgilanmaydi. U fuqarolik jamiyati institutlari – ta'lim tizimi, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, yoshlar ittifoqlari bilan o'zaro uzviy aloqada shakllanadi. Davlat va jamiyat o'rtasida uyg'unlik mavjud bo'lmagan taqdirda, islohotlar kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Shu bois, har qanday jamiyatning rivojlanishi shaxsning ijtimoiy integratsiyalashuv darajasi, uning ma'naviy madaniyati, siyosiy faolligi va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishiga uzviy bog'liqdir. Zamonaviy O'zbekistonda shaxsning aynan mana shu jihatlari ustuvor strategik vazifa sifatida qaralmoqda.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi (2017–2021). – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: "Strategiya" markazi nashrlari, 2023.
4. "Raqamli iqtisodiyot – 2030" konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi nashri, 2019.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
7. Parsons T. The Social System. – New York: The Free Press, 1951.
8. Parsons T., Shils E. Toward a General Theory of Action. – Harvard University Press, 1951.
9. Giddens A. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2009.
10. Ritzer G. Classical Sociological Theory. – New York: McGraw-Hill, 2010.
11. Comte A. Cours de philosophie positive. – Paris: Bachelier, 1830–1842.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).